

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 12-may

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 60 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 12-may

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© “Sciences problems team” MChJ, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rahimova Sevara, Hakimova Nargiza, Bakirov Shoxrux
QISHLOQ XO'JALIGIDA YUK MASSASINI O'LCHASHNING METROLOGIK TA'MINOTI: ANIQLIK,
USULLAR VA INNOVATION YECHIMLAR 4-10

Жуманазаров Акмал
АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ГОРНО-РАЗМОЛЬНЫХ МАШИН: ТЕОРИЯ ОБЪЕМНОГО
РАСПРЕДЕЛЕНИЯ 11-18

Rahimova Sevara, Hakimova Nargiza, Bakirov Shoxrux
TIBBIYOTDA YUK MASSASINI O'LCHASHNING METROLOGIK TA'MINOTI: ANIQLIK, USULLAR
VA INNOVATION YECHIMLAR 19-23

TARIX FANLARI

Salayev Umrbek
OROL DENGIZI TARIXI. YANGI O'ZBEKISTONDA REJALAR VA USTUVOR VAZIFALAR 24-21

Atamuratova Dilafroz
XORAZM TIPOLITOGRAFIYASIDA NASHR QILINGAN BA'ZI ADABIYOTLAR TAHLILI 22-27

IQTISODIYOT FANLARI

Mirtursunova Dinara
BANKLARDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI 34-36

FALSAFA FANLARI

Холиқова Покиза
ИЖТИМОЙ ДЕВИАНТЛИК МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ 37-41

FILOLOGIYA FANLARI

Yakubova Feruza
"SARF" VA "TASRIF" ATAMALARINING FARQLARI VA SARF ILMINING
NAZARIY ASOSLARI 42-44

Turdaliyeva Dilfuza
XALQ MAQOLLARINING KONTEKSTUAL TAHLILI 45-48

TIBBIYOT FANLARI

Турсунова Лайло, Дадажонов Хамидулло
КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ НА
ДИАЛИЗНОМ ЭТАПЕ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК 49-54

Мамадалиев Хасанхон, Тошматова Зухрахон
ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА АНТИФОСФОЛИПИД СИНДРОМИНИНГ УЧРАШИ ВА УНИНГ
ДЕРМАТОЛОГИК НАМОЁН БЎЛИШИ 55-59

XALQ MAQOLLARINING KONTEKSTUAL TAHLILI

Turdaliyeva Dilfuza Salohiddinovna,

Farg'ona davlat universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, PhD.

Tel:91-115-37-60

ORCID: 0000-0002-7872-6659

dturdaliyeva79@mail.com

Farg'ona.O'zbekiston

Annotatsiya. Annotatsiya.Ushbu maqolada xalq maqollarining mumtoz she'riyat matnlarida qanday ishlatilishi,ularning matn mazmuniga qanday hissa qo'shishi tahlil qilingan. Maqollarning grammatik tuzilishi, ularning she'riy matndagi sintaktik o'rni va ularning boshqa til birliklari bilan aloqasi ham muhimligi, masalan, maqollarning qo'shma gaplarda qanday ishlatilishi, yoki ulardan kelib chiqadigan grammatik jihatlar izohlangan. Maqollarning semantik ma'no jihatlarini o'rganish, ularning she'riy asardagi rolini aniqlashda yordam beradi. Maqollar qanday ma'nolarni o'z ichiga olishi va bu ma'nolar she'riy matnning umumiy tematikasiga qanday mos kelishi ta'kidlanadi. Maqollar va she'riy matn o'rtasidagi leksik aloqalarni tahlil qilish, maqollarning leksik boyligini va matn ichida qanday ishlatilgani, maqollarning matn ichidagi kontekstual va grammatik jihatlarini tahlil qilish ham maqoladan o'rin olgan.Mumtoz she'riyat matnlarida xalq maqollariga graduonimik yondashuvni o'rganish, maqollar va ularning she'riy asardagi rolini chuqurroq tushunishga yordam berishi, graduonimik yondashuv maqollarning matn ichidagi kontekstual va grammatik jihatlarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi haqidagi nazariy masalalar ham maqola tarkibidan o'rin olgan.Lisoniy darajalanish – til qonunlaridan biri bo'lib, bu qonuniyatning takrorlanuvchan andazasi “muayyan til belgisining tadrijiy ozayib yoki ko'payib borishi”dir.

Kalit so'zlar: maqol, kontekstual tahlil, graduonimik yondashuv, lisoniy darajalanish, semantik ma'no, leksik tahlil, adresant, grammatik struktura, til qonuni, miqdor o'zgarishlari.

CONTEXTUAL ANALYSIS OF FOLK PROVERBS

Turdaliyeva Dilfuza Salohiddinovna

Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature

Fergana State University, PhD

Fergana, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes how folk proverbs are used in classical poetic texts, how they contribute to the content of the text. The grammatical structure of proverbs, their syntactic role in the poetic text, and their relationship with other language units are also important, for example, how proverbs are used in compound sentences, or the grammatical aspects arising from them, are explained. Studying the semantic meaning aspects of proverbs helps to determine their role in a poetic work. It is emphasized what meanings proverbs contain and how these meanings correspond to the general theme of the poetic text. The article also includes an analysis of the lexical connections between proverbs and the poetic text, an analysis of the lexical richness of proverbs and how they are used within the text, and an analysis of the contextual and grammatical aspects of proverbs within the text. The article also includes theoretical issues about the study of the graduonymic approach to folk proverbs in classical poetic texts, the help in a deeper understanding of proverbs and their role in a poetic work, and the analysis of the contextual and grammatical aspects of proverbs within the text. Linguistic gradation is one of the laws of language, and the recurring pattern of this law is “the gradual decrease or increase of the corresponding linguistic feature”.

Keywords: proverb, contextual analysis, graduonymic approach, linguistic gradation, semantic meaning, lexical analysis, addressee, grammatical structure, language law, quantitative changes.

Kirish.Mumtoz she'riyat matnlarda xalq maqollariga graduonimik yondashuvni o'rganish, maqollar va ularning she'riy asardagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Graduonimik yondashuv maqollarning matn ichidagi kontekstual va grammatik jihatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

1. Kontekstual tahlil: Maqollar she'riyatdagi ma'naviy, mavzuiy yoki hikmatli qatlamni ochib beradi. Maqollarni she'riy matn ichida qanday ishlatilganini, ularning matnning asosiy mazmuniga qanday hissa qo'shganini tahlil qilish zarur.

2. Grammatik strukturasi: Maqollarning grammatik tuzilishi, ularning she'riy matndagi sintaktik o'rni va ularning boshqa til birliklari bilan aloqasi ham muhimdir. Masalan, maqollarning qo'shma gaplarda qanday ishlatilishi, yoki ulardan kelib chiqadigan grammatik tuzilmalar o'rganiladi.

3. Semantik ma'nolar: Maqollarning semantik (ma'no) jihatlarini o'rganish, ularning she'riy asardagi rolini aniqlashda yordam beradi. Maqollar qanday ma'nolarni o'z ichiga olishi va bu ma'nolar she'riy matnning umumiy tematikasiga qanday mos kelishi ta'kidlanadi.

4. Leksik tahlil: Maqollar va she'riy matn o'rtasidagi leksik aloqalarni tahlil qilish, maqollarning leksik boyligini va matn ichida qanday ishlatilganini aniqlashda yordam beradi.

Graduonimik yondashuv yordamida maqollarning she'riy asardagi o'rni va ularning matn bilan qanday integratsiyalashganini chuqurroq tushunish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Lisoniy darajalanish – til qonunlaridan biri bo'lib, bu qonuniyatning takrorlanuvchan andazasi “muayyan til belgisining tadrijiy ozayib yoki ko'payib borishi”dir. Lisoniy darajalanish tilning barcha sath va munosabatlarida namoyon bo'la olar ekan, bu yalpi hodisani til qonuni deb tavsiflashimizga to'g'ri keladi. Ushbu lisoniy qonunning real asosi miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tib borishi bilan belgilanadi. Demak, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik sathlardagi darajalanishlar sifat jihatdan boshqa-boshqa hodisalar (kategoriya) emas, balki bir umumiy andaza – “muayyan belgi miqdorining oshib yoki kamayib borishi” bilan ish ko'ruvchi lisoniy darajalanish qonunining tilning turli sathlarida namoyon bo'lishidir.[1.17.]

Ushbu hodisaga aloqador masalalar o'zbek tilshunosligida O.Bozorov, Sh.Orifjonova, J.Jumaboyeva, N.Shirinova, N.Vohidovalar tomonidan turli asrekdagi tadqiq qilingan¹.

Natijalar. Izlanishlarimiz davomida turkiy tilli xalqlar maqollariga ham murojaat qilib ko'rdik. Masalan, turk tili haqida gap ketganda, o'zbeklar va turklar bir daraxtning ikki shoxi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Daraxtning shoxlari bir xil bo'lmasada, ildizi birdir. Turk va o'zbek tilidagi maqollarni tahlil qilish jarayonida ikki xalq maqollari o'rtasida mazmunan yaqinlik mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bu bizga ikki xalqning madaniyati, urf-odatlarini, yashash tarzining yaqinligidan dalolat beradi. Garchi, bu masala chog'ishtirma tilshunoslikka tegishli bo'lsada, ayrim turk xalq maqollari pragmatikasini ham qisman bo'lsada, yoritib berishga harakat qilib ko'rdik.

Masalan, “Ağilda oğlak doğsa ovada otu biter” (*Qo'yxonada uloq tug'ilsa, tekislikda o't o'sadi*) maqolida, Olloh taolo har bir jonzotni yaratarkan, uning rizqini ham yaratishi, ammo ba'zi odamlar ochko'zlik qilib, kimlarningdir haq-huquqlarini o'zlashtirib, ularning ro'zg'orini tortib olishga harakat qilishi, shuning uchun ham ba'zi odamlar och va qashshoq qolishi, agar odamlar birovning haqiga xiyonat qilishmasa, hammaning tirikchiligi yaxshi bo'lishi kabi pragmatik mazmun seziladi. Bu maqol o'zbek tilidagi “*Rizq kamaymas, banda ochidan o'lmas*” yoki “*Umid o'lmas, rizq kamaymas*” maqollariga mazmunan yaqin bo'lib, rizqni berilishi bandasiga emas, Ollohga bog'liq ekanligi, birovga tegishli bo'lgan rizq birovga buyurmasligi, Olloh har bir bandani rizqi bilan yaratishi kabi ma'nolar yashiringan. Ikkala maqol ham leksik-semantik jihatdan o'zaro yaqin bo'lib, -s(-sa) shart mayli asosida mazmun ifodasi kuchaytirib berilgan.

“Ağlamayan çocuğa meme vermezler” (*Yig'lamagan bolaga ko'krak berishmaydi*) maqolida ba'zan huquqlar poymol qilinsa-da, indamay, oqibatiga ko'nib ketaverish to'g'ri

emasligi, jim, ovoz chiqarmasdan turaverilsa, harakat qilinmasa, hech kim yordam qo'lini cho'zmasligi anglashiladi. Bu maqol o'zbek tilidagi *"Bola yig'lamasa, ona sut bermaydi"* maqoliga mazmunan yaqin bo'lib, ikkala maqolda ham insonning o'zi uchun o'zi harakat qilish kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu maqollar tarkibidagi leksemalarning struktur va semantik jihatdan o'xshash tomonlari matn mazmunidan anglashilib turibdi. Ikkala maqolda ham inson o'zi uchun harakat qilish kerakligi pragmatik jihatdan sezilib turibdi.

Quyidagi misralarda shoir forscha maqoldan turkiy matnda samarali foydalanib, irsoli masal san'atining yorqin namunasini hosil qiladi:

*Chu mehnatning hadu poyoni yo'qtur,
Tuganmaklik ba ish imkoni yo'qtur.
Gahi faryodu afg'oni chekarbiz,
Gah ish qilmoq uchun joni chekarbiz.
Emas bu tesha urmoq ishga darxurd,
Kecha-kunduz qoqarbiz ohani sard.*

(Alisher Navoiy, "Saddi Iskandariy")

Baytning keyingi misrasida shoir foydasiz, imkonsiz ish uchun urinishning behudaligi haqida so'z yuritir ekan, *"Ohani sard kuftan"* maqoli orqali *sovuq temirni o'yish befoyda* ekanligini ta'kidlaydi. Bu maqol hozirgi kunda *"Temirni qizig'ida bosish kerak"* tarzida ishlatiladi. Bu o'rinda *"irsoli masal"* san'ati qo'llanib, maqol badiiyat talabi bilan sayqallashtirilgan.

Muhokama. Badiiy matn ichida maqolni transformatsiyalangan variantda qo'llashda bevosita adresant maqsadi maqolning nutqiy axborot berish imkoni (kommunikativlik), semantik yuki (ekspressivlik), mazmuniy potentsiali bilan birlashadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maqolning vaziyatga mos holda matnga kiritilishi – uning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, regulativ, ornamental xususiyatlarining bir paytda yuzaga chiqishini ta'minlovchi omildir. Estetik, pragnostik, ma'naviy ozuqa berish vazifalari esa o'quvchi tomonidan hissiy idrok etiladi.

Quyidagi baytda esa shoir irsoli masal san'ati vositasida o'z muddaosi – mizoj mayl ko'rsatgan narsaga ortiqcha ruju' qilmaslik lozim degan fikrni tasdiqlash uchun *"Yaxshining ko'pidan yomonning ozi yaxshi"* maqolini keltiradi:

*Bu so'zni ahli hikmat deb durur xo'b,
"Yamondin oz behkim, yaxshidin ko'p".*

Xulosa. Maqollar to'plamiga asoslanib ushbu maqolning ma'nodoshlar qatorini quyidagicha tuzish mumkin: *Har bir ishning chamasi bor, Har daryoning kemasi bor, Gapning ozi yaxshi, Qizning – nozi, Gapning hissasi yaxshi, Yo'lning – qisqasi.*[2.338-379] Bularda umumiy ma'no – me'yorni saqlay olish. Muallif baytda maqolning transformantidan foydalanadi, chunki maqol variantini qo'llashda muallif situativ sharoitdan kelib chiqishi ham lozim. O'z fikrini, sharhlayotgan voqea-hodisasini yoritishda qaysi maqol yaxshiroq natija bersa, shunisini ma'qul ko'radi. Darajalanish qatoridan kuchli/kuchsiz a'zoni tanlashi misraning umumiy mazmuni, vaziyat va fikrga ham bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фанлари док. дисс. автореф. –Тошкент, 1997. – Б. 17.
2. Ўзбек халқ мақоллари. (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусоқулов, В.Саримсоқов) – Т.: "Шарқ", 2005. – 512 б. – Б.338-379.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Саккизинчи том. Хамса. Фарҳод ва Ширин. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг “Фан” нашриёти. Тошкент, 1991 // www.ziyouz.com kutubxonasi
4. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView>: Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоетик хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалсаф. доктори. ...дисс. – Фарғона, 2019.;
5. Орифжонова Ш.Ғ. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 41 б.;
6. Широнова Н.Ж. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: филол.фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 42 б.;